

ABDUSATTOROV Ilhom Baxriddinovich,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini
o'rganish ICESCO
kafedrası tayanch doktoranti

“MAORIF AS-SUNAN” ASARIDA TERMIZIY TOMONIDAN JARH VA TA'DIL MAVZUSIDA BILDIRILGAN FIKRLARINING O'RGANILISHI

A STUDY OF THE THOUGHTS OF TERMIZI ON THE TOPIC OF JARH AND TADIL IN THE WORK “MAARIF AS-SUNAN”

ИЗУЧЕНИЕ МЫСЛЕЙ ТЕРМИЗИ НА ТЕМУ ДЖАРХ И ТАДИЛЬ В ПРОИЗВЕДЕНИИ “МААРИФ АС- СУНАН”

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Sunani Termiziy”ning sharhi “Maorif as-Sunan” asarida hadis ilmining muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan “jarh va ta'dil” mavzusida olib borgan ilmiy izlanishlari tahlil qilinadi. Pokistonlik hanafiy olim Muhammad Yusuf Banuriy ushbu sharhni yozishda roviylarning ishonchlilik va zaifligi haqidagi hukmlarni nechog'lik ehtiyotkorlik bilan keltirgani, shaxsiy fikrdan ko'ra, tarixiy va ilmiy asosga tayangani ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, roviylar haqidagi hukmlarni qanday manbalarga tayangan holda bayon qilgani hamda bu borada qo'llagan uslubi ochib berilgan. Ushbu maqola roviylar haqidagi hukmlarni yaxshiroq tushunishga va hadis ilmini o'rganishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. “Sunani Termiziy”, “Maorif as-Sunan”, “jarh va ta'dil”, “Taqrību-t-tahzib”, sahih, zaif, maqbul, mardud, matruk.

Аннотация. В этой статье анализируются научные исследования, проведенные Пакистанским ханафитским ученым Мухаммадом Юсуфом Банури по теме “джарх и таъдил”, одной из важных отраслей науки о хадисах, в его комментарии “Маъариф ас-Сунан”. Показано, насколько тщательно Банури представил суждения о надежности и слабости рассказчиков при написании этого комментария, и как он опирался на исторические и научные основания, а не на личное мнение. В ней также раскрываются источники,

на которых он основывал свои суждения о рассказчиках, и метод, который он использовал в этом отношении. Эта статья служит для лучшего понимания суждений о рассказчиках и для глубокого изучения науки о хадисах.

Ключевые слова. “Сунан ат-Тирмизи”, “Маариф ас-Сунан”, “Джарх ва тадил”, “Тақриб ат-Тахзиб”, sahih, daif, maqbul, mardud.

Abstract. This article analyzes the scientific research conducted by Pakistani Hanafi scholar Muhammad Yusuf Banuri, on the subject of “jarh and ta'dil”, one of the important branches of hadith science, in his commentary “Ma'arif as-Sunan”. It is shown how carefully Banuri presented the judgments on the reliability and weakness of narrators in writing this commentary, and how he relied on historical and scientific grounds rather than personal opinion. It also reveals the sources on which he based his judgments on narrators and the method he used in this regard. This article serves to better understand the judgments on narrators and to study the science of hadith in depth.

Keywords: “Sunan al-Tirmidhi”, “Ma'arif as-Sunan”, “jarh va ta'dil”, “Taqrīb al-tahzīb”, sahih, daif, maqbul, mardud.

KIRISH

Hadisshunoslik fanining muhim tarmoqlaridan biri “jarh va ta'dil”¹ ilmi bo'lib, hadislarini rivoyat qilishda muhaddislar bilishi kerak bo'lgan dastlabki ilmlardan biridir. Muhaddislar bu ilm orqali hadis rivoyat qilgan roviyning tarjimai holi, kimlardan hadis eshitgani, uning adolati, hifzi va boshqa xususiyatlarini sinchikovlik bilan o'rganib chiqib, adolatli deb topilsa rivoyatini qabul qilganlar. Agar “jarohatli” (adolatiga ziyon yetgan) bo'lsa

1 “Jarh” so'zi “jaraha” fe'lidan olingan masdar bo'lib, lug'atda “yarador qilish”, “jarohatlash” ma'nolarini bildiradi. Mustalahul hadis ilmida esa bu so'z hadislarining nuqsonli ekanligini bildirish uchun qo'llanadi va “adolatiga jarohat yetgan”, “adolati yarador bo'lib qolgan”, “nuqsonga uchragan” kabi ma'nolarni anglatadi.

“Ta'dil” so'zi “adala” (“adolatli bo'lmoq”, “to'g'rilamoq”) fe'lidan olingan masdar bo'lib, “to'g'rilab qo'yish”, “tuzatish” kabi ma'nolarni bildiradi. Mustalahul hadis ilmida esa bu so'z roviylarning adolatini tekshirishga nisbatan qo'llanadi va “adolatliligini aniqlash” ma'nosini anglatadi. Qarang: Shayx Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf. Mustalahul hadis. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2021. – B. 268. Hadis ilmi iʼtilohlari ensiklopediyasi. Sayyid Abdulmojid G'avriy. Mas'ul muharrir Sh.Ziyodov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 448 b.

rivoyatini tark qilganlar. Shu yo'l bilan din ishlariga yolg'on xabarlar kirib kelishining oldi olingan.

Hadislarni alohida kitoblarga jamlash hijriy II asrda boshlangan bo'lsa, hijriy III asrda eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Bu davrda yashagan Ali ibn Madiniy (vaf. 234/848), Yahyo ibn Ma'in (vaf. 233/847), Muhammad ibn Sa'd (vaf. 230/845), Muhammad ibn Ismoil Buxoriy (vaf. 256/870), Muslim ibn Hajjoj (vaf. 261/875), Abu Zur'a ar-Roziy (vaf. 264/878), Abdulloh ibn Abdurahmon Dorimiy (vaf. 255/869) kabi muhaddislar jarh va ta'dil ilmida peshqadam imomlardan hisoblanadilar [9:235]. Jumladan, buyuk muhaddis Abu Iso at-Termiziy ham jarh va ta'dil ilmida imomlik maqomiga erishgan olimlardandir. Uning "Sunani Termiziy" asarida roviylar tog'risida ko'p ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bundan tashqari, olimning jarh va ta'dil ilmiga oid "Kitob fi-l-jarh va-t-ta'dil" va "Tarix" nomli asarlar yozganligi tarixiy manbalarda qayd qilingan. Ammo ushbu asarlar bizgacha yetib kelmagan. Shuningdek allomaning "al-Ilalu-s-sag'ir" va "al-Ilalu-l-kabir" asarlarida ham jarh va ta'dil ilmiga oid muhim ma'lumotlar bayon qilingan.

Abu Iso at-Termiziy roviylar haqidagi ilmlarni Imom Buxoriy, Imom Dorimiy va Abu Zur'a ar-Roziy kabi buyuk olimlar bilan bo'lgan ilmiy bahs-munozaralaridan olgan. Bu haqida alloma "al-Ilalu-s-sag'ir" kitobida shunday deydi: "Men ushbu (Jome') kitobimda keltirilgan hadislar, roviylarning illatlari va tarix haqidagi ma'lumotlarimni tarix kitoblaridan oldim. Bu ma'lumotlar haqida Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, Abdulloh ibn Abdurahmon (Dorimiy) va Abu Zur'alar bilan bahs-munozara qildim. Ko'pincha bu borada Muhammad ibn Ismoil Buxoriy bilan maslahat qilgan bo'lsam, ba'zida Abdulloh ibn Abdurahmon va Abu Zur'a bilan maslahatlashdim. Men ilal, tarix va isnodlarni bilishda Iroq va Xurosonda Muhammad ibn Ismoil Buxoriydan ko'ra olimroq kishini ko'rmadim" [1:889; 12:127].

Abu Iso at-Termiziy jarh va ta'dil borasida mohir olim ekanligi ko'plab muhaddislar tomonidan e'tirof etilgan. Olimning "Sunani Termiziy" kitobida ham bu borada juda ko'p ma'lumotlar keltirilgan. Asarni o'rganib unga sharh yozgan olimlar asarda nomi zikr qilingan roviylarning holati (adolati va zabti) va tarjimai holini o'rganishga alohida e'tibor qaratganlar.

Jumladan, "muhaddisu-l-asr" unvoniga sazovor bo'lgan Pokistonlik hanafiy olim Muhammad Yusuf Banuriy "Sunani Termiziy"dagi hadislarni sharhlashda hadisdan olinadigan shar'iy hukm bilan birga jarh va ta'dil ilmiga ham to'xtalib o'tgan. U "Sunani Termiziy"da nomlari zikr qilingan roviylarning barchasini tahqiq qilishni lozim topmagan. Asosan, shaxsiyati borasida olimlar tomonidan turli fiklar aytilgan roviylarga ko'proq e'tibor qaratgan.

ASOSIY QISM

Banuriy "Sunani Termiziy"ni sharhlash jarayonida roviylarning tarjimai hollari, qaysi tabaqadan ekanligi, jarh va ta'dil olimlarining roviylar haqida aytgan gaplarini ba'zan qisqa, ba'zan batafsil keltirib o'tadi. Bu borada jarh va ta'dil olimlari tomonidan roviylar haqida aytilgan fikrlarini o'zidan hech narsa qo'shmay naql qilib keltiradi va hukmlarini bayon qiladi. Muallif ko'p o'rinlarda hadis roviylari borasida jarh va ta'dil ilmida mashhur bo'lgan Ibn Hajar Asqaloniyning "Taqrību-t-tahzib" va "Tahzibu-t-tahzib", Shamsuddin az-Zahabiyning "Mezonu-l-i'tidol", Haysamiyning "Majma'u-z-zavoid va manba'u-l-favoid", Xazrajiyning "Xulosatu tahzib tahzibu-l-kamol", al-Munziriyning "at-Targ'ib va-t-tarhib" asarlariga tayanadi.

Ibn Hajar Asqaloni "Taqrību-t-tahzib" asarida roviylarning holatlari haqida aksar o'rinlarda to'liq xulosa beradigan ma'lumotlarni jamlaganki, shuning uchun bu asar aksar tadqiqotchilar murojaat qiladigan manbalardan biriga aylangan. Uning bayoni qisqa va mo'jaz bo'lsada, o'quvchida roviylar haqidagi umumiy tasavvur shakllanishiga imkonini berib, jarh va ta'dilni to'liq qamrab oladi. Bunga Termiziy rivoyat qilgan hadislar isnodidagi quyidagi roviylar haqidagi fikrlarini misol qilib keltirish mumkin: Bishr ibn Mufasssal ishonchli sobit, obid, Husayn ibn Voqid ishonchli unda vahm (xato, gumon) bor, Abu Ja'far ar-Roziy rostgo'y, hifzi yomon, Abdulaziz ibn Xolid at-Termiziy (maqbul) qabul qilingan, Hakim ibn Jubayr Zaif shiyalikda ayblangan, Mas'ud ibn Vosil Basriy hadisi yengil, Abu Horun Umora ibn Juvayn u hadisi tark qilingan kishilardan, hatto ba'zilar uni yolg'onchilikda ayblagan [2:4:188:192; 2:5:254:443; 2:6:249].

Keltirilgan bu misollarda Banuriy “Taqrību-t-tahzīb”da roviylar haqidagi ma’lumotlar qanday bo’lsa, shunday bayon qilish bilan kifoyalanadi. Ya’ni u roviylar haqida umumiy xulosa olish imkonini beruvchi asosiy ma’lumotlarni beradi. Olim keyingi o’rinlarda Ibn Hajar Asqaloniyning roviylar borasidagi hukmlariga qo’shimcha qilib, boshqa jarh va ta’dil olimlarining fikrlarini qo’shimcha qilib keltiradi.

Ayyub ibn Voqid Kufiy haqida “Taqrību-t-tahzīb”da u “matruk” (hadisi tark qilingan) deyilgan. “Mezonu-l-i’tidol”da Buxoriyning u haqidagi “hadisi munkar” – hadisi inkor etilgan, degani keltirilgan [2:5:512].

Banuriy aytadi: “Farqad Sabaxiy borasida “Taqrību-t-tahzīb”da saduq(rostgo’y), obid, lekin, hadisda bo’sh, xatosi ko’p deyilgan. Ibn Hajar “Tahzību-t-tahzīb”da Abu Hotimning “laysa bi qaviyyin” – u kuchli emas degani naql qilingan. Buxoriydan naql qilingan ma’lumotga ko’ra, uni hadisi tark qilinganlardan, degani keltirilgan” [2:6:462].

Bu roviylar haqidagi umumiy mulohazalar Ibn Hajar Asqaloni “Taqrību-t-tahzīb”da aytilgan gaplaridir. Lekin Banuriy naql qilgan boshqa fikrlar tadqiq qiluvchiga boshqa muhaddislar nazdida roviyning holi qanday bo’lganini bilish imkonini beradi.

Banuriyning roviylar haqidagi qisqa bayon qilish uslubining ko’rinishlaridan Haysamiyning “Majma’u-z-zavoid” asarida keltirilgan hukmlariga suyananidir. Haysamiyning mazkur asaridagi hadis roviylariga bergan hukmlari o’quvchida ijobiy fikrlarni uyg’otadi. Chunki u, hadis roviylarini ishonchli yoki ishonchsizligi borasida hukm berishda ko’p o’rinlarda Zahabiyning “Mezonu-l-i’tidol” asariga suyanadi. U jarh va ta’dil haqida so’z yuritganda hadis va u haqida aytilgan gaplarni to’liq va batafsil keltirmaydi. Balki qisqa bayon qilish bilan kifoyalanadi. Tadqiqotchiga esa asl manbaga murojaat qilishga ishora qiladi. Xuddi shunday uslubni Banuriy ham “Maorif as-Sunan”da ko’p bora qo’llagan. Chunki Banuriy roviy haqida o’z fikrini bildirmasdan, jarh va ta’dilga oid manbalardagi hukmlarni naql qilish bilan kifoyalanadi.

Sulaymon ibn Ahmad Vositiy haqida Banuriy Haysamiydan shunday naql qiladi: “Uni Ibn Main yolg’onchi degan, boshqasi zaif degan, Abdon

ishonchli degan”. Banuriy naql qilganda Haysamiy u haqida qanday ma’lumot keltirgan bo’lsa, boricha zikr qilib, boshqa hech narsa ziyoda qilmaydi.

Bu o’rinda Haysamiyning qisqa ifodasi va iboraning to’liq bayoni orasidagi farqqa nazar solish lozim bo’ladi. U “Abdon ishonchli degan”, deyishi va Ibn Mainning u haqida aytgan gapi, hamda yana boshqa kishi uni zaif degan, deyishi roviy haqida qarama-qarshi fikrni yuzaga keltiradi.

Banuriy Zahhok ibn Muzohim haqida Haysamiyning gapini so’zma so’z o’zidan hech narsa ziyoda yoki izoh qo’shmasdan keltiradi: “Ahmad, Yahyo va Abu Zur’a ishonchli deganlar, boshqalar esa zaif degan [2:1:249]. Ibn Qatton u haqida aytgan fikri eng to’g’rirog’i bo’lishi mumkinligi haqiqatdan uzoq narsa emas. “U ishonchli roviylardan bo’lib, xato qilgani sobit bo’lmagan. Lekin u haqida ixtilof qilingan va hadisi hasandir” [2:1:480].

Banuriy Ibn Qattonning fikrini keltirish bilan kifoyalanadi. Uning bu hukmi u haqida jarh va ta’dil borasida yetarli xulosa qilish imkonini beradi.

Aliy ibn Zayd ibn Jud’an haqida kelgan rivoyatlar asosida Banuriy uni sanaddagi holatiga hukm keltirib shunday deydi: “Muslim sahihida undan dalil keltirib, hadisda yengil bo’lsada, u saduq(rostgo’y) va hadisi olinadigan kishi degan”. Bu maqbul xulosadir [2:1:311-480].

Jarh va ta’dilning eng muhim asosi unga tegishli matnlarni hech qanday o’zgartirishlarsiz boricha keltirishdir. Chunki mazkur asos jarh va ta’dil olimlari tomonidan ishlab chiqilgan qoidalar asosida qo’yilgan. Agar matnlar asl lafzlari va harflari bilan tadqiqotchi tomonidan o’zgartirish kiritilmasdan boricha hikoya qilinsa, o’quvchining ko’z oldida har bir roviyning fikr va qarashlaridan kelib chiqqan iboralarning daqiq jihatlarini gavdalanadi. Ularning hukmda qattiqligi va yengilligi borasida qo’ygan me’yorlarini idrok qiladi.

Agar naql qiluvchi rivoyatni asl holidan emas balki o’zi tushunganidek yetkazadigan bo’lsa, u rivoyatdagi asllik yo’qoladi. Tadqiq qiluvchi esa mulohaza yuritib uni daqiq jihatlarini kashf etish imkoniyatidan mosuvo bo’ladi. Chunki o’sha rivoyatga naql qiluvchi o’z tushunchasi doirasidagi narsalarni kiritgan bo’ladi va bu tadqiqotchiga roviy haqida to’g’ri xulosa chiqarishga to’sqinlik qiladi.

Hofiz Mizziyning “Tahzibu-l-kamol” asari keyingi davr olimlari uchun muhim manba sifatida xizmat qilmoqda. Uning mazkur asarining ahamiyati shundaki, olim o‘z asarida jarh va ta’dil haqidagi ma’lumotlarni naql qiluvchi kishilardan qanday rivoyat qilingan bo‘lsa so‘zma-so‘z keltirgan. Shu yo‘l bilan tadqiqotchilarning hadis ilmining muhim tarmog‘i hisoblangan jarh va ta’dil ilmini eng daqiq nuqtasigacha anglab yetishiga va bu boradagi asl manbalardan xabardor bo‘lishga xizmat qilgan [7].

Hadis ilmidagi istilohiy nomlarni o‘rganish davomida, asl holdagi matn va unga o‘zgartirish kiritilgan matn orasidagi farq ma’lum bo‘ladi. Naql qilingan xabarlarda rivoyatning asl egasi nima deganu, uni naql qilgan kishi qanday tushungan va tushunchasini rivoyat qilganda rivoyatning asliyati qanchalar o‘zgargani aniqlansa, zaifga chiqarilgan ko‘plab roviylarning tarjimai hollari qayta ko‘rib chiqilishiga to‘g‘ri keladi. Hatto ba’zi o‘rinlarda biron bir olim kimnidir ishonchli degan yoki zaif degan deyish mushkul bo‘lib qoladi. Chunki ko‘p hollarda ishonchli yoki zaif degan lafzni qo‘llagan yoki shunday fikr bildirgan kishi o‘sha roviy haqida butunlay hukm berishdan uzoq bo‘ladi. Uni zaif yoki ishonchli so‘zi faqat birgina hadisni isnodiga qaratilgan bo‘ladi [4:315].

Banuriyning ilmiy merosi o‘rganilganda shu narsa ko‘zga tashlanadiki, u kimnidir ishonchli yoki zaif deb hukm qilmaydi. Balki mazkur roviy haqida zamondoshlari yoki undan keyin yashagan katta olimlar qilgan hukmni keltiradi. Ya’ni hukm qilishni ularga qoldiradi.

Banuriy hadis ilmida shuhrat qozongan olimlarning mahorati, hifzi va qadrining yuksakligiga mos shaklda, o‘zlariga loyiq darajada sifatlaydi. Ularning ba’zilariga asarlarda kelmagan gap-so‘z, ta’nalar qilingan bo‘lsa, uni ma’qullamaydi. Aksincha ularning ilmi, taqvosi va boshqa fazilatlarini aytib ulug‘laydi.

Olimning shunday yo‘l tutganiga misollardan biri sifatida shuni keltirish mumkinki, u “Sunani Termiziy”ning “Ko‘p suvni hech narsa nopok qilmasligi” haqida kelgan hadislar bobini sharhlash asnosida bir necha buyuk olimlar Ibn Madiniy, Ibn Munzir, Ibn Jarir, Qozi Ismoil Abu Bakr ibn Arabiy, G‘azzoliy, Ibn Daqiq al-Iyd, Abu Hajjoj, Mizziy va Ibn Qayyumlarning ismlarini zikr qilib, har birini mahoratli hofizlar deb sifatlaydi. Keyinroq esa:

“Bularning barchasi to‘rt mazhabning yulduzlari” deb, ularning sha’nini ulug‘lovchi fikrlarni bayon qiladi [2:1:231-236].

Ba’zi olimlarga ta’na qilinganini keltirsa ham ularga nisbatan o‘zining izlanishlari natijasida kelgan xulosasini emas, balki ta’na qilingan olimning o‘z darajasidagi yoki undan yuqoriroq darajadagi olimning u haqida aytgan fikrini keltirib, o‘z o‘rnida sababini ham bayon qilib o‘tadi. Bunga misol qilib Husayn ibn Aliy Karobisiy haqida naql qilgan rivoyatini keltirish mumkin. “U Shofeiy mazhabidagi mo’tabar, so‘zi e’tiborli olimlardan. Ibn Adiy va boshqalar ishonchli deganlar, unga ta’ana qilganlardan biri Ahmad ibn Hanbal bo‘lib, bunga “Qur’on maxluq” fitnasi sabab bo‘lgan...” [2:1:325]

Hadis ilmini o‘rganishga kirishgan kishi roviylar haqida keltirilgan qisqa ma’lumotlar bilan cheklanmasdan asl manbalarga murojaat qilishi lozim bo‘ladi. Ana shundagina hadis roviylarining asl haqiqatlari kashf qilinadi va manbalarga kirib qolgan ba’zi xatolar yoki tushunmovchiliklar o‘rtadan ko‘tariladi. Ana shunday asl manbaga murojaat qilib tadqiq mavzusi bo‘yicha chuqur kirib borilsa olimlarning birlari boshqasiga ta’na qilishi sababi oydinlashadi va ta’na qilingan ba’zi olimlar ham rivoyati qaytariladigan kishi emasligi ma’lum bo‘ladi.

Jarh va ta’dil bo‘yicha yozilgan manbalarda nomlari zikr qilingan va ular haqida ixtilof qilingan roviylarni o‘rganadigan kishi kimnidir ishonchli yoki zaif deyishdan oldin ularning tarjimai hollarini yaxshilab o‘rganib chiqilishi shart bo‘ladi. Avval o‘tgan olimlar orasida bo‘ladigan bo‘lsa jarh va ta’dilga aloqador manbalar ko‘zdan kechirilib, mazkur roviylar yoki rivoyatlari haqidagi fikrlar o‘rganilishi lozim bo‘ladi. Shundagina ular haqida insofli va adolatli hukm chiqarish imkoni paydo bo‘ladi.

Xuddi shunga o‘xshash misollarni “Maorif as-Sunan” asarida oz bo‘lsada topish mumkin, asar muallifi ular haqida jarh va ta’dil kitoblarida rivoyat qilingan qisqa ma’lumotlarni keltirib, holatga ko‘ra zaif yoki quvvatli ekanini bayon qiladi.

Banuriyning o‘rganishlari tahlili natijasida Muhammad Ibn Is’hoqqa aloqador muhim ma’lumotlarni topish mumkin. U mazkur roviy haqida aytilgan turli xil va bir-biriga qarama-qarshi fikrlarni jamlaydi. Aynan shu roviy to‘g‘risida

olimlar ichida eng ko'p bahs-munozaralar kelib chiqqanligini aytib o'tadi: "U haqida "jarh va ta'dil" olimlari turli fikrlarni aytganlar. Undan boshqa roviylar borasida juda nodir hollardagina shunga o'xshash ixtilof yuzaga kelgan. Molik ibn Anas: "U dajjollardan bir dajjoldir", degan. Shu'ba ibn Hjjoj esa: "Hadis ilmida mo'minlarning amiri", degan. Ibn Muborak, Ibn Sa'd, Ibn Ma'in, Buxoriy va Ijliylar ishonchli degan. Bayhaqiy "Ismlar va sifatlar" kitobida unga ta'na qilgan. Boshqa bir kitobi "Qiro'at"da esa uning rivoyatiga tayanib, dalil qilib keltirgan lekin, ta'na qilmagan" [2:1:91].

Shamzuddin az-Zahabiy "Mezonu-l-i'tidol" asarida mazkur roviy to'g'risida shunday fikrni aytgan: "Shayxning nazdida haqiqat shuki u hasan roviylardan va hifzida kamchilik bor" [7:3:468-475].

Banuriy u haqida ulamolar orasidagi ixtilofning qanchalar keng ekaniga ishora qilib, bir paytning o'zida olimlardan biri uni adolatlikning yuqori martabasiga chiqarib, hadisda mo'minlarning amiri desa, boshqasi uni dajjollardan bir dajjol deganini naql qilgan. Musulmonlarning peshqadam olimlari tomonidan berilgan bu kabi bir-biriga mutlaqo zid fikrlar bu ilmga kirib kelayotgan talabani hayronlik ichida qoldiradi. Bunday holatda o'quvchi to'g'ri yo'lni topa olishi uchun bu fanning mahoratli ustozlariga, usul va qoida egalari bo'lgan olimlarga murojat qilishi lozim bo'ladi. Shunda olimlar tomonidan bir-biriga zid fikrlar aytilganini ko'rganda to'g'ri xulosa ola bilish malakasiga ega bo'ladi [3:329-333].

Shu o'rinda Banuriyning muhaddislar o'rtasida Muhammad Ibn Is'hoq haqidagi ixtilofli fikrlarni birma-bir keltirib, Zahabiyning fikrini naql qilish bilan yakunlaganiga e'tibor qaratish lozim. Ushbu ma'lumotlar qisqa bo'lsa ham bahs yuritilayotgan mavzu bo'yicha juda foydali bo'lib, olimning maqsadi muammoni batafsil tushuntirish emas, balki o'quvchiga eng muhim narsa nima ekanligini yetkazish va undan foyda olishiga ko'maklashish bo'lgan. U naql qilgan ma'lumotlardan mazkur roviyning jarh va ta'dil manbalarida bayon qilingan holi qandayligi va tahqiq davomida roviyning asliyatini qanday ekanligi haqida umumiy xulosa olish imkonini beradi. Bu olimning roviylar haqida qisqa bayon qilish uslubidir.

Banuriy jarh va ta'dil ilmiga oid tadqiqotlari davomida aniqlagan va boshqa jarh va ta'dil

kitoblarida kelmagan roviylar haqidagi ma'lumotlarni keltirib, unga e'tibor qaratadi. Jumladan, Mu'ammal ibn Ismoil haqida Ibn Hajar "Fathu-l-boriy" asarida: "Savriydan rivoyat qilgan hadisida zaiflik bor", deganini rivoyat qiladi. [6:9:238]. "Tahzibu-t-tahzib" asarida Mu'ammal ibn Ismoilning hifzida zaiflik borligi keltirilgan bo'lib, lekin bu zaiflik faqat Savriydan rivoyat qilingan hadisga oiddir [3:337].

Banuriyning "Maorif-as-Sunan" asarida roviylar to'g'risida fikr bildirishda odob va insof bilan yondashganligini ko'rish mumkin. Roviyning shaxsiyati haqida so'z yuritganda maqto'v so'zlar aytadi. U roviylarning shaxsiy fazilatlarini haqida so'z borganda, ularga berilgan ijobiy ta'riflarni jumhur muhaddislarining yakuniy hukmlari bilan keltiradi. Banuriy ana shunday chiroqli uslub bilan roviylar haqidagi jarh va ta'dilga doir qarashlarini bayon etadi hamda har bir roviyni o'z maqomiga munosib darajaga qo'yishga harakat qiladi.

Banuriyning Ibn Luhay'a haqida rivoyat qilgan ma'lumotlari bunga misol bo'la oladi: "Uning ilmida, fazlida va taqvdorligida hech shubha yo'q. Uni zaif deyilishiga sabab 170-hijriy yilda kitoblari yonib ketgan. So'ng yodda saqlab qolganidan rivoyat qila boshlagan va xatoga yo'l qo'yan. U Sufyon Savriy haj qilmoqchi ekanini eshitib, u bilan uchrashishni umid qilib hajga borganligi rivoyat qilingan" [5:5:373]. Shuningdek, olim Yusuf ibn Xolid Samtiy haqida aytadi: "Ular (muhaddislar)ning nazdida u matruk, lekin u imom, faqih, mutakallim bo'lgan" [2:1:392]. Ana shunday sifatlar bilan olimni hurmatlaydi. Bu bilan uning hadislari tark qilinishiga dindagi kamchiligi emas, balki muhaddislar qo'yan shartlarga rivoyatlari to'g'ri kelmaganligini tushintiradi.

Banuriyning o'ziga xos uslublaridan yana biri shuki, olimlar va muhaddislar haqida so'z yuritganda ular to'g'risida boshqa olimlar tomonidan aytilgan e'tirof va maqto'vlarini naql qilishidir. "Abu Zur'a ar-Roziy (vaf. 264/878) mashhur hofiz, Buxoriyning zamondoshi bo'lib, Muslim va Termiziyni ustozidir. Ismi Ubaydulloh ibn Abdulkarimdir. U haqida Buxoriy va Muslimning ustozlaridan Ibn Bashshor shunday deydi: "Dunyoda hadis hofizlari to'rttadir. Rayda Abu Zur'a, Nishopurda Muslim ibn Hajjoj, Samarqandda Abdulloh ibn Abdurahmon ad-Dorimiy, Buxoroda Muhammad ibn Ismoillardir" [2:1:358].

Banuriy Abu Zur'a ar-Roziy haqida qisqacha ma'lumot keltirish bilan kifoyalanadi. Ammo, Ibn Bashshorning Abu Zur'ani boshqa buyuk muhaddislar – Buxoriy, Muslim va Dorimiylar qatorida e'tirof etganligini keltirishi, olimning sha'nini ulug'lash va qadrini yuqori ko'tarishni maqsad qilganidan dalolatdir.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Muhammad Yusuf Banuriy hadislarni tadqiq qilishda juda ko'p manbalarga murojaat qilib, undagi ma'lumotlarning xulosasini keltirgan va tadqiq qilinayotgan mavzu bo'yicha qaysi manbalarda batafsil ma'lumot keltirilganligiga ham ishora qilib o'tgan. Shuningdek, hadis roviylari borasida jarh va ta'dil hukmini aytishda o'z fikriga ta'yanib hukm qilmagan. Balki o'sha roviy bilan zamondosh bo'lgan yoki unga yaqin davrda yashagan jarh va ta'dil borasida mohirlik bilan tanilgan olimlarning fikriga tayangan. Roviyni shaxsiyati borasida gapirganda maqto'v bilan so'z yuritib, ular to'g'risida muhaddislar tomonidan aytilgan maqto'vlarni yakuniy hukm sifatida keltirgan. Agar biror roviyni jarh va ta'dil olimlari zaif degan bo'lsalar, uning nima uchun zaif ekanligini bayon qilib o'tgan. Lekin o'sha roviyning sha'ni va obro'sini tushiradigan biror gap aytmay, boshqa fazilatlarini naql qilib o'tgan. Olimning roviylar borasida olib borgan ilmiy izlanishlari hadis ilmini chuqur o'rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy. Jome'u-t-Termiziy. – Ar-Riyod: Doru-s-Salom, 1999. – 1056 b.
2. Muhammad Yusuf Banuriy. Maorif as-Sunan. 6 jild. – Karachi, 1979.
3. Muhammad Yahyo Bilol Manyor. Dirosa hadisiyya fiqhiyya an Maorif as-Sunan sharh Sunani at-Termiziy. – Makka: Maktabatu-l-makkiya. 2006. – 774 b.
4. Ahmad ibn Ali ibn Hajar Asqaloni. Tahziybu-t-tahziyb. 12 jild. – Qohira: Doru-l-fikr, 2011.
5. Ahmad ibn Ali ibn Hajar Asqaloni. Fathu-boriy sharhu Sahihi-l-Buxoriy. 15 jild. – Ar-Riyod: Doru-s-Salom, 2000.
6. Shamsuddin az-Zahabiy. “Mezonu-l-i'tidol fi naqli-r-rijol”. 8 jild. – Bayrut: “Doru-l-kutubu-l-ilmiya”, 2014.
7. Jamoliddin Abulhajjoj Yusuf al-Mizziy. Tahzibul-kamol fi asmoi-r-rijol. 14 jild. – Bayrut: Muassatu-r-risola, 2006.
8. Hadis ilmi istilohlari ensiklopediyasi. Sayyid Abdulmojid G'avriy. Mas'ul muharrir Sh.Ziyodov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 448 b.
9. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Mustalahul hadis. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2021. – B. 268.
10. Hamroqulov J. Imom Abu Iso Muhammad Termiziy. – Toshkent: Movarounnahr, 2017. – B. 126.